

SO'NGGI BRONZA VA ILK TEMIR DAVRIGA OID QIZILTEPA YODGORLIGIGA  
TAVSIF

**Xoliddinov Nuriddin Oromiddin o'g'li**

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti tuzatori*

**Annotatsiya:** *Tarixshunoslikda so'nggi bronza davri Markaziy Osiyoda katta madaniy, etnik, diniy o'zgarishlar jarayoni yuz bergan davr sifatida ko'rinadi. Ushbu davrda xalqlarning migratsiya jarayonlarining faollashuvi va shu asosda Markaziy Osiyoning deyarli barcha tarixiy mintaqalarini yarim ko'chmanchi va o'troqlashayotgan dehqon jamoalari egallashuvi kuzatiladigan davr deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan xalqlarning qarishuvi jarayonlari sodir bo'lgan va yangi madaniyatlar shakllangan, hunarmandchilikning ko'plab sohalarida regress(inqiroz), ayrimlarida progress (rivojlanish) holati yuz bergan ushbu davrni o'rganish hozirgi kunda jahon arxeologiyasida dolzarb masala hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Qiziltepa, kulolchilik, Sho'rchi, sug'orma dehqonchilik, Mirshodi, madaniy qatlam, kulolchilik charxi.*

Qiziltepa maskani vohaning Mirshodi madaniy xo'jalik tumani hududida joylashgan. Maydonining kengligi 1.5 km. Qiziljarsoy, Qizilsuv va Yoyilmasoylardan iborat. Sharqdan va janubi-g'arbdan butalar bilan chegaralangan. Bu yerda 18 ta manzilgohlar aniqlangan. Ular so'nggi bronza va ilk temir asriga tegishli. Ulardan eng qadimiylari Mullalitepa, Qiziljartepa, Qizilsuvtepa<sup>4</sup>. Vohaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan aholining asosiy qismi esa 2-2.5 km janub tomonga soyga yaqin joylarda joylashgan. Shulardan biri Buyrachitepa I. Bronza davrida barpo etilgan, lekin keyingi davrlarda uning egallagan maydoni 10 ga ni tashkil etgan<sup>5</sup>

Mil.avv. ming yillikning boshlarida Qiziltepa xo'jalik manzilgohlari 3 guruhga bo'linadi.:

Birinchisi-500 metr g'arbga joylashgan.Qiziltepadan-Qizilcha 6,7,8 gacha.

Ikkinchisi- Qizilcha I, II, III, IV. Qiziltepadan 250 metr sharqda joylashgan.

Uchinchisi- Qizilcha IX, X, XI. Qiziltepadan 550 metr sharqda joylashgan.

Qizilcha V esa Qizildaraning chap qirg'og'ida joylashgan.Ularning ko'pi to'liqligicha buzilib ketgan.Shunday bo'lishiga qaramasdan yashash maskanlar ko'pligi bilan ifodalanadi. 400-600 metr kv. Maydonning ko'pchilik qismida sopol parchalari va toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Qadimda yashash maskanlari borligini aks ettiruvchi joylar bular qirg'oq bo'ylarida bo'lib 1,5 – 2 metr joylardan iborat.

A.A. Sagdullayev tadqiqotlariga ko'ra, mil.avv. V-IV asrlarga oid bo'lgan Mirshodi arxeologik yodgorligi aholisi tarqoq joylashgan. Ushbu hududdan topilgan

<sup>4</sup> Сагдуллаев А. С. 1980. Раскопки древнебактрийской усадьбы Кызылча 6// СА. 1980.

<sup>5</sup> Сагдуллаев А. С. 1978а. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа: Автореф. дис. ...канд. ист. наук. Л., 1978.

topilmalarning bazilari antik davrga oidligini anglash mumkin. Ushbu yodgorlikda so'nggi o'rta asr yerto'lalari ham joylashgan. Lekin mil.avv. V-IV asrdan keyin XVIII-XIX asrgacha tilga olinmagan. Bronza davrida yerlar o'zlashtirilgan, ariqlar qazilgan, bog'lar barpo etilgan. Aholi maskanlari daryo qirg'oqlarida joylashgan. Hozirgi kunga kelib ushbu hududlar ekin maydonlariga aylantirilgan<sup>6</sup>. Shuning uchun qadimiy maskanlarning ko'pchiligi buzilgan va ularni aniqlashning imkoni bo'lmagan. Qazilgan kanallar ilk temir asriga tegishli bo'lib Buyrachi II va Qizilcha 6 oralig'ida shuning bilan bir qatorda Qiziltepaning shimoli-g'arbiy qismlarida joylashgan. Ekin maydonlari qadimda ushbu hududda 200 ga dan ortiq bo'lgan. Jumladan, Qizilsuv va Yoyilma daryolari oralig'ida 65 ga gacha, Qiziltepa hududida 85 ga dan ortiq va Qiziljarsoyning o'ng qirg'og'ida 90 ga gacha bo'lgan<sup>7</sup>. Lekin hosildorlik umumiy yer maydoni tuman bo'yicha juda yaxshi ko'rsatkichlarni beradi. Aholi sonining ko'payishi joylashgan o'rnining kengayishi ishchi kuchining o'sishi dehqonchilikning rivojlanishi har xil tarixiy davrlarga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Yerlarga ishlov berish bog' yaratish bularni hammasining asosi suv taminoti, yani soylar hisoblangan. Aholining joylashish tartibi shuni ko'rsatadiki, odamlar ko'pincha soy qirg'oqlarida yashaganligini ,so'nggi bronza davrida yer maydonlari 2,5 km gacha o'zlashtirilgan. Chekka hududlar esa o'zlashtirilmasdan qolgan. Ilk temir asrida Mirshodi vohasining maydoni 2,5 km.kv. dan oshmagan. Uning chegarasi aholi manzilgohlaridan, irrigatsiya manbalaridan o'zlashtirilgan yerlar va adirlarga borib taqalgan. Vohaning ichki qismini nazarda tutsak, yo'llar, bo'sh yerlar, mavsumiy qurulishlardan iborat yerlar va hokazolarni inobatga olish darkor. Ushbu tuman o'zining joylashgan o'rni, qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan ajralib turgan. Hozirgi kunga kelib huddi qadimgidek tuman aholisi soy bo'ylariga joylashgan. Vohaning zamonaviy maydoni 8-10 km.kv. ni tashkil etadi. Uning tarkibiga 4 ta katta qishloq kiradi. Hammasi tog'oldi hududi ariq va kanallardan suv ichadi. Tog'oldi hududlarining ko'pgina qismi asosan chorvachilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanadi.

1970-1971 yillarda O'zbekiston arxeologik ekspeditsiyasi so'nggi bronza davri va ilk temir davriga oid Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanining shimoli-g'arbiy qismidan 9 km uzoqlikda joylashgan hududda qazishmalar boshlandi<sup>8</sup>. Qazishma ishlari natijasida bu yerda har xil shakldagi arxeologik obyektlar aniqlandi.

Shulardan biri Qiziltepa mil.avv. X-V asrlarda faoliyat yuritganligi aniqlandi Qiziltepada keng miqyosda olib borilgan arxeologik qazishmalar quyidagi xulosalarga olib keldi. Yani mil.avv VIII-VI asrlarda ushbu hududda manzilgoh o'rnida yangi shaharning paydo bo'lganligi va shakllanganligi aniqlandi<sup>9</sup>. Qiziltepa shahar xarobasining maydoni 22 gektar. Tepaning shimoli-g'arbiy qismida qo'rg'on qoldiqlari joylashgan. Qo'rg'onning balandligi 10 metr keladi. Paxsa bilan o'ralgan shahar

<sup>6</sup> Сагдуллаев А. С, Хакимов З. А. 1978. Работы Миршадинского отряда//АО. 1977. М.: Наука, 1978.

<sup>7</sup> Сагдуллаев А., Хакимов З. 1976. Археологическое изучение городища Кызылтепе//БД. Л.: Наука, 1976.

<sup>8</sup> Пугаченкова Г. А. 1972. Новый памятник древнебактрийской культуры// УСА. 1972. Вып. 1.

<sup>9</sup> Сагдуллаев А. С. 1978а. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа: Автореф. дис. ...канд. ист. наук. Л., 1978.

devorlari qalin va mustahkam. Mudofaa devorlari o'rtasida askarlar yurishi uchun eni 1,5 metrlik maxsus yo'lak bo'lgan. Shahar devorlari ustiga o'q otish uchun har 3-5 metrda harbiy minora –mudofaa burji qurilgan. Devorlarning har 2 metrda o'q otadigan shinaklar uchraydi. Arxeologik qazishmalar natijasida bronza o'q uchlari va o'q sifatida ishlatilgan tosh yadrolar topilgan. Aholisi asosan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ko'proq to'rtburchak shaklda qurilgan uylar ochilgan. Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham muhim o'rin egallagan.

1974-1978 yillarda olib borilgan qazishmalar davomida Qiziltepada memoriy joylashuvlar rejasi o'rganilgan. Bu yerda aniqlangan topilmalarni arxeologik materiallar bilan solishtirganda ,bu malumotlarda bazi sotsiologik, iqtisodiy va demografik qurulish uslublarida foydalanilgan bo'lishi mumkin. Topilmalar asosida Qizilcha 6 o'zining joylashgan o'rni va iqtisodiy shakli bo'yicha aytish lozimki bu ilk temir davrining xo'jalik manzilgohi sifatida foydalanilgan. 1980 yilda Qiziltepaning boshqa manzilgohida qazishmalar olib borildi va topilgan materiallar Qizilcha 6 dan topilgan topilmalar bilan bir xilligi aniqlandi. Yuqorida ko'rsatilgan topilmalar to'liq o'rganilsa muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytgacha O'rta Osiyoda to'liq o'rganilgan qishloq manzilgohi Dingilja bo'lib, bu manzilgoh mil.avv. V asrga oidligi aniqlangan. O'zbekiston arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Ilk temir davriga oid bo'lgan xo'jalik manzilgohlarida qazishmalar amalga oshirilmasdan avval ushbu maskanlar ro'yhatga olingan va qisqa ta'rif bilan Turkmanistonning janubi-sharqida joylashganligi ko'rsatilgan<sup>10</sup>.

Bir vaqtning o'zida Qiziltepadagi qazishmalar Surxon vohasidagi Balxab suv havzasi o'rganilganda davr bo'yicha yaqinligi va joylashgan o'rnining o'xshashligi aks etgan. Afg'onistonning shimolida olib borilgan qazishmalar to'liqligicha amalga oshirilgan va qazishmalarning aksariyati jumladan, madaniy yodgorliklar va qala inshootlari mil.avv. I mingyillikning o'rtalariga to'g'ri keladi<sup>11</sup>.

Qizilcha maskani qazishmalargacha 1-3 metr tepalik bo'lganligi, o'lchami 45x25, 35x24, 36x15 metr.Qazishmalar vaqtida topilgan sopol parchalari mil.avv. I mingyillik o'rtalariga tegishli ekanligi aniqlangan. Madaniy qatlam tarkibiga qo'lda yasalgan sopol va charxda yasalgan sopollar, tosh qurollari, kul qatlami kiradi. Bazi joylarda qurilish qatlamlari yemirilgan. Stratigrafik malumotlarga qaraganda Qizilcha 6 da 4 ta har xil o'lchamdagi arxeologik komplekslarga ajratiladi.

Birinchi qatlamdan Qizil I tipiga xos bo'lgan qo'lda yasalgan sopollar topilgan.

Ikkinchi-I va II qurilish davri oralig'idagi topilmalar Qizil II ga xos.

Uchinchi- III qurilish davri arxeologik topilmalari Qizil III davriga xos va

To'rtinchi- IV qurilish davri Qizil IV davriga xos.

Qiziltepada ushbu xolatlar to'liq va aniq emas. Qiziltepadagi sopol idishlarni tavsiflaganda qurilish ishlarining ketma-ket olib borilgan, Qizil I davri sopollarining 97% qo'lda yasalgan. Sopol idishlar ustidan och sariq va bazida qizil angobda rang

<sup>10</sup> Массон В. М. 1959. Древнеземледельческая культура Маргианы//МИА. 1959. № 73.

<sup>11</sup> Сарияниди В. И. 1977. Древние земледельцы Афганистана. М.: Наука, 1977.

berilgan bo'lib, aylana, yarim doira, jumrakli, xumcha, tuvak, qozon shaklli idishlardan iborat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Сагдуллаев А. С. 1980. Раскопки древнебактрийской усадьбы Кызылча 6// СА. 1980.
2. Сагдуллаев А. С. 1978а. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа: Автореф. дис. ...канд. ист. наук. Л., 1978.
3. Сагдуллаев А. С, Хакимов З. А. 1978. Работы Миршадинского отряда//АО. 1977. М.: Наука, 1978.
4. Сагдуллаев А., Хакимов З. 1976. Археологическое изучение городища Кызылтепе//БД. Л.: Наука, 1976.
5. Пугаченкова Г. А. 1972. Новый памятник древнебактрийской культуры//УСА. 1972. Вып. 1.
6. Массон В. М. 1959. Древнеземледельческая культура Маргианы//МИА. 1959. № 73.
7. Сарияниди В. И. 1977. Древние земледельцы Афганистана. М.: Наука, 1977.